



JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA PSIXOLOGIK PROFAYLINGDAN FOYDALANISHNING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

telefon: +998972249998

jasurbekaniyazov91@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19848981>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 5-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 6-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 28-aprel 2026 yil

KEY WORDS

tergovchi, psixologik profayling, jinoyat tergov, kriminalistika, yuridik psixologiya, jinoyatchi shaxsi, psixologik portret, dalillar, tergov harakatlari, prognozlash, jinoyat protsessi, huquqiy asoslar, tergov samaradorligi, tezkor-qidiruv faoliyati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida psixologik profaylingdan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilingan. Zamonaviy jinoyatchilikning murakkablashib borishi sharoitida an'anaviy tergov usullarini takomillashtirish va ularni psixologik tahlil vositalari bilan boyitish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada psixologik profaylingning mohiyati, uning kriminalistika va yuridik psixologiya tizimidagi o'rni, jinoyatchining psixologik portretini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, profaylingning tergov jarayonidagi amaliy imkoniyatlari, jinoyatchilarni aniqlash, ularning xulq-atvorini prognoz qilish hamda tergov harakatlarini samarali rejalashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada xorijiy va MDH davlatlari olimlarining ushbu sohaga oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi asosiy yondashuvlar va mavjud muammolar ochib berilgan. Shu bilan birga, psixologik profaylingning huquqiy maqomi, uning dalillar tizimidagi o'rni va qo'llash chegaralari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Amaldagi qonunchilikda ushbu institutni tartibga solishdagi ayrim bo'shliqlar ko'rsatib o'tilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tahlil, sintez, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuv kabi ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Kirish.

Dunyoda zamonaviy jinoyatchilikning tobora murakkablashib, an'anaviy tergov usullari bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etmoqda. Ayniqsa, davomli, ko'p epizodli, latent va yuqori darajada rejalashtirilgan jinoyatlarning soni ortib borayotgan sharoitda faqat moddiy dalillar yoki protsessual harakatlarga tayanish yetarli samara bermasligi amaliyotda kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, jinoyat sodir etgan shaxsning psixologik xususiyatlari, xulq-atvor modellari, qaror qabul qilish mexanizmlari va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan profayling usullari tergov samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Psixologik profayling jinoyatchining ehtimoliy portretini yaratish orqali tergov doirasini toraytirish, gumon qilinuvchilar doirasini aniqlash va tezkor-qidiruv tadbirlarini maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Bu esa ayniqsa noma'lum shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni ochishda katta amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, profayling nafaqat jinoyatchini topish, balki uning keyingi harakatlarini prognoz qilish, jinoyatlarning oldini olish va kriminogen holatlarni bartaraf etishda ham samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuning yana bir muhim jihati shundaki, psixologik profayling amaliyotda keng qo'llanilayotganiga qaramasdan, uning huquqiy maqomi, qo'llash doirasi, dalil sifatidagi ahamiyati va protsessual chegaralari yetarlicha aniq belgilab berilmagan. Bu esa profayling natijalaridan foydalanishda turli xil talqinlar, hatto ayrim hollarda huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin. Xususan, shaxsning psixologik portretiga ortiqcha ishonish yoki uni asosiy dalil sifatida qabul qilish prezumpsiya nevinovnosti kabi fundamental huquqiy prinsiplarga zid kelishi xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli, profaylingni jinoyat protsessiga integratsiya qilishda uning aniq huquqiy chegaralarini belgilash, ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va uning natijalarini dalillar tizimida to'g'ri joylashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada, ayniqsa rivojlangan davlatlarda, psixologik profayling jinoyatlarni tergov qilishning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, milliy huquqiy tizimlarda uning qo'llanilishi darajasi va huquqiy tartibga solinishi bir xil emas. O'zbekistonda ham jinoyat-protsessual faoliyatni modernizatsiya qilish, inson huquqlarini ta'minlash va tergov samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish zarurati mavjud. Bu esa psixologik profaylingning nazariy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish, uni milliy qonunchilikka moslashtirish va amaliyotga joriy etish masalasini yanada dolzarblashtiradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili rivojlanayotgan sharoitda profayling yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jinoyatchilarning raqamli izlari, onlayn xulq-atvori va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini tahlil qilish orqali yanada aniq va kompleks profillar yaratish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa tergov organlari oldiga yangi vazifalarni qo'yadi va psixologik profaylingni huquqiy jihatdan tartibga solishni yanada dolzarb masalaga aylantiradi.

Umuman olganda, jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profaylingdan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq etish zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, tergov jarayonini ilmiy asoslash, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda milliy jinoyat-protsessual tizimni takomillashtirish nuqtai nazaridan alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Material va metodlar.

Ayni paytda, respublikamiz sud-huquq tizimidagi islohotlarning davom ettirilayotganligi, shaxsning huquq va erkinliklarining kafolatlari muntazam mustahkamlanib borayotganligi munosabati bilan muammoning dolzarbligi yanada ortadi va u dastlabki tergovga jalb qilingan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasiga bevosita daxldor bo'lganligi bois chuqur va mustaqil tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

Maqolada mazkur institutni tahlil qilish va amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari.

Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profaylingdan foydalanish masalasi ilmiy adabiyotlarda bir xil talqin etilmaydi va bu borada dunyoning yetakchi olimlari o'rtasida jiddiy ilmiy munozara mavjud.

Psixologik profaylingning tarafdorlari orasida John E. Douglas alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, "...jinoyatchi shaxsining xulq-atvori jinoyat sodir etish jarayonida muayyan izlar qoldiradi va ushbu izlarni tahlil qilish orqali jinoyatchining psixologik portretini shakllantirish mumkin. U profaylingni empirik kuzatuvlar, kriminal tajriba va povedentik tahlilga asoslangan amaliy instrument sifatida baholaydi"[1, 384-b]. Shu nuqtai nazarni Robert K. Ressler ham qo'llab-quvvatlab, ko'p epizodli jinoyatchilarni o'rganish orqali ishlab chiqilgan tipologiyalar tergovni samarali yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi[2, 240-b]. Ularning qarashlariga ko'ra, profayling jinoyatlarni ochishda empirik jihatdan o'z samaradorligini isbotlagan.

Biroq mazkur yondashuvga nisbatan tanqidiy pozitsiyani ilgari surgan olimlar ham kam emas. Jumladan, Brent E. Turvey profaylingning an'anaviy maktabiga tanqidiy yondashib, uning ko'p hollarda ilmiy emas, balki sub'ektiv taxminlarga asoslanishini qayd etadi. Unga ko'ra, "...profayling faqat aniq kriminalistik dalillar va tekshirilgan ma'lumotlarga asoslangandagina ilmiy ahamiyat kasb etadi, aks holda u "intuitiv taxminlar to'plami"ga aylanib qolishi mumkin"[3, 816-b]. Shu nuqtai nazarni David Canter ham qo'llab-quvvatlab, profaylingni ilmiy psixologiya va statistik tahlil bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. U "investigative psychology" konsepsiyasini ilgari surib, jinoyatchining xulq-atvorini tahlil qilishda matematik modellar va empirik tadqiqotlarga tayanishni taklif qiladi[4, 256-b].

Ayrim olimlar profayling natijalarini mustaqil dalil sifatida qabul qilish mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Xususan, Richard N. Kocsis profaylingni tergovni yo'naltiruvchi yordamchi instrument sifatida baholab, uning natijalari faqat boshqa dalillar bilan birgalikda qo'llanilishi lozimligini ko'rsatadi. Uning fikricha, "profayling dalil emas, balki gipoteza shakllantirish vositasidir"[5, 368-b]. Shu bilan birga, ayrim huquqshunos olimlar profaylingdan noto'g'ri foydalanish inson huquqlariga tahdid solishi, xususan, aybsizlik prezumpsiyasiga zid holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etadilar[6, 320-b].

Boshqa bir guruh olimlar esa profaylingni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali uning ilmiy asoslanganligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar[7, 280-b]. Ularga ko'ra, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va algoritmlashtirilgan modellar profaylingni sub'ektivlikdan xoli qilib, uni yanada aniq va ishonchli vositaga aylantirishi mumkin. Biroq bu yondashuv ham mutlaq qo'llab-quvvatlanmaydi, chunki ayrim tadqiqotchilar algoritmlar ham inson tomonidan yaratilgani sababli ularda ham ma'lum darajada sub'ektivlik saqlanib qolishini ta'kidlaydilar[8, 400-bet].

Shu tariqa, psixologik profaylingning ikki qarama-qarshi konsepsiyasi amaliy-empirik va ilmiy-analitik yondashuvlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Bir tomon uni tergov samaradorligini oshiruvchi muhim instrument sifatida e'tirof etsa, ikkinchi tomon uning ilmiy asoslanganligi va huquqiy maqomini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu munozaralar psixologik profaylingni yanada takomillashtirish, uning nazariy-huquqiy asoslarini chuqur ishlab chiqish va jinoyat protsessida samarali hamda qonuniy qo'llash mexanizmlarini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profaylingdan foydalanish masalasi ham yagona yondashuvga kelmagan. Bu boradagi ilmiy qarashlar asosan kriminalistika, yuridik psixologiya va jinoyat protsessi fanlari kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy maydonni tashkil etadi. Ushbu muhokamalarda an'anaviy shakllangan kriminalistik maktab muhim o'rin tutadi va ko'plab tadqiqotchilar profaylingni mustaqil yangi institut sifatida emas, balki kriminalistikaning an'anaviy kategoriyalari doirasida tahlil qilishga intiladilar.

Jumladan, R.S.Belkin tomonidan ilgari surilgan kriminalistik xarakteristika nazariyasi profayling masalasini tushunishda metodologik asos sifatida qaraladi. Uning fikricha, "har bir jinoyat turi muayyan tipik belgilar tizimiga ega bo'lib, jinoyatchining shaxsi, uning harakat usuli, jinoyat sodir etish sharoiti va iz qoldirish xususiyatlari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi"[9, 464-b]. Aynan shu yondashuv keyinchalik profayling konsepsiyasiga yaqin bo'lgan

g'oyalarni shakllantirishga zamin yaratgan bo'lsa-da, R.S.Belkin profaylingni alohida mustaqil ilmiy usul sifatida emas, balki kriminalistik tahlilning tarkibiy qismi sifatida baholaydi.

A.R.Ratinov yuridik psixologiya nuqtai nazaridan jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini, motivatsiyasini va psixik holatini tahlil qilish tergov jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. A.Ratinov profaylingga bevosita ushbu atama bilan murojaat qilmagan bo'lsa-da, uning "jinoyatchining psixologik portreti"ni shakllantirishga oid g'oyalari zamonaviy profayling konsepsiyasi bilan mazmunan uyg'un hisoblanadi. Shu bilan birga, u bunday tahlillar qat'iy ilmiy va empirik asosga ega bo'lishi lozimligini alohida qayd etadi[10, 352-b].

V.Ya.Koldin esa tergov jarayonida ma'lumotlarni modellashtirish va prognoz qilish masalalariga e'tibor qaratib, jinoyatchining ehtimoliy xususiyatlarini oldindan belgilash mumkinligini ta'kidlaydi. Uning qarashlarida profayling elementlari "kriminalistik modellashtirish" tushunchasi orqali ifodalanadi. Biroq V.Koldin ham profaylingni mustaqil dalil sifatida emas, balki tergov versiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi yordamchi vosita sifatida ko'radi[11, 176-b].

Shu bilan birga, N.P.Yablokov kriminalistik tavsif va jinoyatchi shaxsini o'rganish muhimligini tan olgan holda, profaylingni ortiqcha universalashtirish xavfli ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "har bir jinoyat individual xususiyatga ega bo'lib, umumiy psixologik modellar barcha holatlarda ham bir xil samara bermasligi mumkin. Shu bois, profayling natijalarini ehtiyotkorlik bilan qo'llash va ularni boshqa dalillar bilan tekshirish zarur"[12, 256-b].

Yuridik psixologiya sohasida faoliyat yuritgan Yu.M.Antonyan esa jinoyatchi shaxsini chuqur psixologik tahlil qilish zarurligini ta'kidlab, ayniqsa zo'ravonlik va agressiv jinoyatlarda shaxsning ichki psixik jarayonlarini o'rganish muhim ekanligini qayd etadi. Uning ishlarida profayling g'oyalari jinoyatchining shaxsiy deformatsiyasi, ijtimoiy muhit ta'siri va individual-psixologik omillarni tahlil qilish orqali ifodalanadi. Biroq Antonyan ham profaylingni huquqiy nuqtai nazardan mustaqil isbot vositasi sifatida emas, balki kriminologik va psixologik tahlil usuli sifatida baholaydi[13, 368-b].

Yuqoridagi olimlari tomonidan bildirilgan umumiy pozitsiya shuni ko'rsatadiki, psixologik profayling g'oyasi to'liq inkor etilmaydi, balki u kriminalistika va yuridik psixologiya doirasida allaqachon mavjud bo'lgan nazariyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qabul qilinadi. Biroq ularning aksariyati profaylingni mustaqil, universal va qat'iy ilmiy usul sifatida tan olimaydi. Asosiy e'tibor uning ilmiy asoslanganligi, empirik tekshirilganligi va huquqiy chegaralarini belgilashga qaratilgan.

MDH mamlakatlari olimlari o'rtasidagi ilmiy nazariy xulosalar G'arb maktabidan farqli ravishda profaylingni amaliyotga tez joriy etish emas, balki uni mavjud kriminalistik nazariyalar bilan integratsiya qilish, ilmiy jihatdan asoslash va huquqiy jihatdan tartibga solish zarurligiga urg'u berish bilan xarakterlanadi. Bu esa mazkur institutni milliy jinoyat-protsessual tizimlarga joriy etishda ehtiyotkorlik, bosqichma-bosqichlik va ilmiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Biroq biz ishtirok etayotgan loyiha doirasida mazkur olimlarning qarashlari hamda ishlab chiqilgan usullarni raqamlashtirish orqali, mazkur belgilarni tergovga yordamchi vosita sifatida taqdim etishni maqsad qilganmiz. Shu bois, bu borada aynan "Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profayling" tushunchasiga ilmiy jihatdan nazariy ta'rifni ishlab chiqishimiz, loyihaning ilmiy asoslanganlik darajasini ta'sinlaydi, deb hisoblaymiz.

Bu borada xorijiy tadqiqotchilarning yondashuvlarida asosiy e'tibor jinoyat sodir etish uslubi va voqea joyidagi belgilarning shaxs ruhiyati bilan bog'liqligiga qaratiladi. Masalan, AQSh FQB maktabi vakillari Jon Duglas va Robert Ressler profaylingni "voqea joyidagi dalillar asosida noma'lum jinoyatchining individual xususiyatlarini aniqlash san'ati" deb biladilar va asosan jinoyatchilarni "uyushgan" va (yoki) "tartibsiz" toifalarga ajratishga urg'u beradilar[14, 504-b]. Britaniyalik olim Devid Kanter esa "tergov psixologiyasi" yo'nalishi doirasida profaylingni ilmiy-statistik model deb hisoblab, jinoyatchining harakatlari va uning ijtimoiy

xarakteristikalarini o'rtasidagi empirik bog'liqlikni birinchi o'ringa qo'yadi[15, 320-b]. Brent Turvi kabi mutaxassislar deduktiv metodni ilgari surib, har bir jinoyatning o'ziga xos xususiyatlarini alohida tahlil qilish orqali shaxs profilini yaratishni taklif etadilar. Ushbu yondashuvlarda ko'pincha jinoyatchining tergov davomida o'z xulq-atvorini ongli ravishda o'zgartirishi (kontr-profayling) va vaziyatning tasodifiy omillari ta'siri yetarlicha baholanmay qolgan[16, 754-b].

Devid Kanter tomonidan ilgari surilgan "Tergov psixologiyasi" yondashuvida profayling ilmiy-statistik tahlil sifatida ta'riflanadi. Uning ustunligi — jinoyat va jinoyatchi o'rtasidagi bog'liqlikni matematik va empirik ma'lumotlar asosida isbotlashga intilishidir. Kamchiligi esa, statistikaga haddan tashqari ishonish individual, notipik jinoyatchilarning o'ziga xos ruhiy holatlarini tahlil qilishda xatoliklarga olib kelishi mumkinligidir, deb hisoblaymiz.

AQSh va Buyuk Britaniya maktablarida profayling voqea joyini tahlil qilish orqali jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini tiklash jarayoni deb ta'riflanadi. Biroq, ushbu qarashlarda profaylingning ilmiy isbotlanuvchanlik darajasi pastligi, ko'p jihatdan mutaxassisning intuitsiyasi va shaxsiy tajribasiga tayanib qolingani asosiy kamchilik hisoblanadi. Shuningdek, jinoyatchining vaziyat ta'sirida o'zgaruvchan xulq-atvori tizimli inobatga olinmaydi.

S.Spiritsa[17, 256-b], V.Obrazsov[18, 448-b] va A.Anfinogenovlar[19, 186-b] profaylingni ko'proq "tezkor psixologik tashxis" sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, "bu metod shaxsning tashqi ko'rinishi, verbal va noverbal harakatlari (mimika, jestlar) asosida uning ichki niyatini va yolg'onini aniqlashga xizmat qiluvchi amaliy vositadir. Bu yerda asosiy e'tibor shaxsning psixotipini (masalan, paranoial, isteroid va hokazo) aniqlashga qaratilgan bo'lib, jinoyatchining vaqt o'tishi bilan shakllanadigan "jinoiy tajribasi" va uning ruhiy evolyusiyasi ba'zan ikkinchi darajali bo'lib qoladi.

Yuqoridagi olimlar profaylingni "tezkor-qidiruv va tergov faoliyatida qo'llaniladigan psixologik portret yaratish usuli" deb ta'riflashadi. Ularning qarashlarida asosiy e'tibor shaxsning psixotipi va patologik xususiyatlarini tashxislashga qaratilgan bo'lib, bu tergovchiga so'roq qilish taktikasini to'g'ri tanlashda katta ustunlik beradi. Biroq, ushbu ta'riflarda profayling ko'proq nazariy-psixologik model sifatida qolib ketgan, uning protsessual hujjatlarda qanday aks etishi va huquqiy dalil sifatida qo'llanilishi mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ye.Spiritsa kabi olimlarning verifikatsiya (yolg'onni aniqlash) yo'nalishidagi ta'riflarida esa asosiy diqqat noverbal belgilarga qaratiladi, ammo shaxsning ijtimoiy muhiti va tarbiyasi kabi fundamental omillar ikkinchi darajaga tushib qolgan.

S.Pirjonov[20, 72-b], M.Mamajonov[21, 45-52-b] qarashlarida profayling milliy mentalitet va etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tergov taktikasini shakllantirish metodi sifatida ta'riflanadi. Ularning yondashuvida profayling nafaqat jinoyatchi qiyofasini yaratish, balki tergov harakatlari davomida gumon qilinuvchi bilan psixologik aloqa o'rnatish va uning xatti-harakatlarini prognozlash vositasi sifatida ko'riladi. Biroq, mahalliy ilmiy xulosalarda profayling natijalarining huquqiy maqomi va ularning sudda isbotlovchi kuchi bilan bog'liq protsessual bo'shliqlar hamon munozarali bo'lib qolmoqda. Shuningdek mazkur yondashuvning ustunligi mahalliy sharoit, milliy mentalitet va etnopsixologik omillarning tergov taktikasiga tatbiq etilishidir. Ayniqsa, so'roq jarayonida psixologik aloqa o'rnatishda ushbu metodning samaradorligi yuqori. Lekin, mahalliy ilmiy qarashlarda profaylingni avtomatlashtirilgan tizimlarga (IT-profayling) integratsiya qilish va uning metodologik xatolarini tizimli tahlil qilish jihatlari hamon kamchilik bo'lib qolmoqda[22, 115-bet].

Umumiy olib qaraganda, barcha yondashuvlarda profaylingning intuitiv tabiati ilmiy metodologiyadan ustun kelishi, jinoyatchi shaxsining dinamik o'zgaruvchanligi va tashqi vaziyatning jinoiy xulq-atvoriga keskin ta'siri kabi jihatlar aksariyat hollarda tizimli tahlil qilinmaganligi ko'zga tashlanadi.

Shu bois, yuqoridagi yondashuvlarga qo'shimcha ravishda "Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profayling" tushunchasiga quyidagi ilmiy-nazariy ta'rifni taklif qilamiz:

“Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profayling bu voqea joyidagi izlar tizimi, jinoyat sodir etish usuli va jabrlanuvchining xulq-atvorini kompleks tahlil qilish orqali noma'lum jinoyatchining dinamik psixologik modelini yaratish, uning kelgusi harakatlarini prognozlash va tergov harakatlarida individual-psixologik taktikani belgilashga qaratilgan ilmiy-amaliy metoddir.”

Taklif etilgan ta'rifning oldingi yondashuvlardan asosiy farqi va ustunligi shundaki, u jinoyatchi shaxsini shunchaki statik va qotib qolgan psixologik surat sifatida emas, balki doimiy o'zgaruvchan va moslashuvchan tizim sifatida talqin qiluvchi dinamik model tushunchasini ilgari suradi. Bu yondashuv tergov jarayonida jinoyatchining o'z xatti-harakatlarini niqoblashi yoki “tergovga qarshilik ko'rsatish” taktikalarini ham inobatga olishga imkon beradi.

Shu bilan birgalikda, jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profaylingdan foydalanish borasidagi loyiha doirasida Xitoy (XXR) davlatiga xizmat safari asosida tajribalar o'rganilganida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Xitoy tajribasida psixologik profayling an'anaviy metodlardan ko'ra ko'proq raqamli va prediktiv (prognozlashtiruvchi) politsiya tizimiga integratsiyalashgan bo'lib, unda asosiy urg'u inson omiliga emas, balki sun'iy intellekt va Big Data tahliliga qaratiladi. Xitoy huquqni muhofaza qilish organlari «Skynet» va «Sharp Eyes» kabi milliy videokuzatuv tizimlari orqali shaxsning yuz tuzilishi, yurishi (gait recognition) va hatti-harakatlarini real vaqt rejimida tahlil qilib, uning psixologik holati va xavflilik darajasini baholovchi algoritmlardan faol foydalanadi. Mazkur tizim nafaqat jinoyat sodir etilgan vaqtda, balki «pre-kriminal» (jinoyatgacha bo'lgan) bosqichda ham shaxsning shubhali xulq-atvorini, masalan, bozordan pichoq, bolg'a va qopni ketma-ket sotib olishi kabi harakatlar zanjirini aniqlab, uning «jinoiy moyillik reytingi»ni shakllantiradi[23].

Bundan tashqari, Xitoy tajribasida «aqli ko'zoynaklar» va SI bilan jihozlangan robot-politsiyachilar yordamida olomon ichidan qidiruvdagi shaxslarni yoki agressiv ruhiy holatdagi gumonlanuvchilarni soniyalar ichida identifikatsiya qilish amaliyoti keng yo'lga qo'yilgan. Mahalliy politsiya bo'linmalarida (masalan, Kunshandagi «Kunpeng Team» bo'linmasi) sun'iy intellekt nafaqat ma'lumot yig'ish, balki tergovchiga so'roq jarayonida gumonlanuvchining mikro-mimikalari va ovoz tembridagi o'zgarishlar asosida eng maqbul psixologik taktikani taklif qiluvchi «virtual assistent» sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, Shanxay Szyao Tung universiteti kabi ilmiy markazlar tomonidan ishlab chiqilgan neyrotarmoqlar insonning yuz tuzilishidagi antropologik belgilar asosida uning jinoiy moyilligini 89% aniqlikda aniqlash bo'yicha eksperimentlarni o'tkazmoqda, bu esa Xitoyda profayling to'liq raqamli biometriya va matematik modellar asosiga qurilganini anglatadi.

Xitoyning raqamli profayling modelini O'zbekiston tergov amaliyotiga tatbiq etishning huquqiy va etik jihatlarini murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, u birinchi navbatda shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilikka moslashishni talab etadi. Huquqiy jihatdan qaraganda, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan psixologik portret yoki jinoiy moyillik haqidagi xulosalarning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan dalillar tizimidagi o'rnini aniqlash eng dolzarb muammodir, chunki hozirgi vaqtda algoritmlar tomonidan chiqarilgan natijalar ko'pincha faqat yo'nalish beruvchi (orientirovka) ma'lumot hisoblanadi va ularni rasmiy isbotlovchi kuchga ega bo'lgan ekspert xulosasi darajasiga ko'tarish uchun alohida protsessual normalar kerak bo'ladi. Bunda algoritmlarning “qora quti” effekti, ya'ni sun'iy intellekt qanday qilib muayyan psixologik xulosaga kelganini inson uchun tushunarli tarzda asoslab bera olmasligi sudda himoya huquqini ta'minlashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Etik nuqtai nazardan esa, Xitoy tajribasidagi kabi shaxsning ijtimoiy reytingi yoki uning yuz tuzilishi, yurishi va biometrik belgilari asosida jinoyatga moyilligini oldindan belgilash (prediktiv ayblov) inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga va milliy qonunchiligimizdagi aybsizlik prezumpsiyasi tamoyiliga zid kelishi xavfi mavjud. Bu jarayonda texnologik diskriminatsiya, ya'ni algoritmlarning muayyan ijtimoiy guruhlariga nisbatan

noto'g'ri xulosa chiqarishi inson taqdiriga daxl qiluvchi xato qarorlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, raqamli profaylingni joriy etishda sun'iy intellekt faqat tergovchiga yordamchi vosita bo'lib qolishi va yakuniy qarorni qabul qilish mas'uliyati to'liq inson (tergovchi yoki sudya) zimmasida bo'lishini kafolatlaydigan "inson nazorati ostidagi algoritm" modelini taklif etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, raqamli profayling uchun foydalaniladigan shaxsiy ma'lumotlarning kiberxavfsizligini ta'minlash va ulardan o'zga maqsadlarda foydalanishni taqiqlovchi qat'iy huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish O'zbekistonda ushbu tizimni joriy etishning majburiy sharti bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profaylingdan foydalanish *bu jinoyat sodir etish mexanizmi, voqea joyidagi izlar va jabrlanuvchining xulq-atvoriga oid ma'lumotlarni an'anaviy psixologik tahlil hamda zamonaviy sun'iy intellekt algoritmlari yordamida sintez qilish orqali noma'lum jinoyatchining dinamik psixologik qiyofasini yaratish, uning kelgusi harakatlarini yuqori aniqlikda prognozlash va olingan natijalar asosida tergov harakatlarining eng maqbul individual-taktik ssenariylarini ishlab chiqishga qaratilgan yuqori texnologiyali va tizimli-amaliy faoliyatdir.*

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, buni quyidagi tahlil natijalarini tasniflashga harakat qilamiz:

*Birinchi*dan, «Jinoyat ishlarini tergov qilishda psixologik profayling» tushunchasiga berilgan an'anaviy ta'riflar qayta ko'rib chiqilib, unga jinoyatchi shaxsining statik holati emas, balki uning tergov jarayonidagi o'zgaruvchanligini ifodalovchi «dinamik psixologik model» sifatida yangi nazariy yondashuv kiritilishi lozim.

*Ikkinchi*dan, profayling faqatgina noma'lum shaxsning qiyofasini yaratish bilan cheklanib qolmay, balki jinoyatchining kelgusi harakatlarini yuqori aniqlikda prognozlash va tergov harakatlari uchun individual-psixologik taktik ssenariylar ishlab chiqishga qaratilgan kompleks faoliyat ekanligi asoslab berildi.

*Uchinchi*dan, sohadagi xorijiy (FQB va tergov psixologiyasi), MDH va milliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi asosiy kamchiliklar intuitivlikka haddan tashqari tayanish, vaziyat omillarining yetarlicha baholanmasligi va metodning huquqiy-protsessual maqomi noaniqligi ochib berildi.

*To'rtinchi*dan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan kelib chiqib, profayling metodini algoritmlarga o'qitish va katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tahlili asosida «raqamli profayling» tushunchasi va uning tergov samaradorligini oshirishdagi o'rni ifodalandi.

*Beshinchi*dan, Xitoy tajribasi misolida yuzni tanish, yurishni identifikatsiya qilish va ijtimoiy monitoring tizimlari orqali jinoyatchilarni prediktiv (oldindan) aniqlashning texnologik jihatlari hamda ushbu tizimni milliy amaliyotga tatbiq etishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tildi.

*Oltinchi*dan, raqamli profaylingni O'zbekiston tergov amaliyotiga joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan etik va huquqiy muammolar, xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilish va sun'iy intellekt xulosalarining daliliy kuchi bilan bog'liq zaif nuqtalar aniqlandi.

*Yettinchi*dan, tadqiqot natijalari sifatida profaylingni shunchaki nazariy xulosadan amaliy-taktik vositaga aylantirish va uning huquqiy asoslarini Jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlash zarurligi haqidagi yakuniy ilmiy xulosa shakllantirildi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar bir qancha xulosalarni amalga oshirishga imkon beradi. Jumladan, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatimizda tergov amaliyotiga psixologik profaylingni va uning raqamli modellarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga «Mutaxassis profayler» tushunchasini va uning tergov jarayonidagi huquqiy maqomini kiritish lozim. Bunda profayling natijasida olingan xulosalarni to'g'ridan-to'g'ri dalil sifatida emas, balki tergov yo'nalishini belgilovchi va dalillar to'plash samaradorligini oshiruvchi tezkor-qidiruv ma'lumoti sifatida qonuniy mustahkamlash zarur.

Ichki ishlar vazirligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi qoshida «Yagona jinoiy-psixologik tahlil markazi»ni tashkil etish taklif etiladi. Ushbu markaz o'tmishda sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning psixologik manzarasini raqamli bazaga (Big Data) jamlashi va sun'iy intellekt yordamida yangi sodir etilayotgan jinoyatlar bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. (Grand-loyiha doirasida amalga oshirish mumkin)

tergov jarayonida qo'llaniladigan «Aqli so'roq» (Smart Interrogation) tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu tizim so'roq qilinayotgan shaxsning ovoz tembri, ko'z qorachiqklarining harakati va yuz mimikalaridagi mikro-o'zgarishlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, tergovchiga planshet yoki monitor orqali shaxsning ruhiy holati va yolg'on gapirish ehtimoli haqida taktik ko'rsatmalar berib turishi mumkin.

«Raqamli viktimologik profayling» metodikasini shakllantirish lozim. Bunda sun'iy intellekt ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ochiq ma'lumotlar bazasini tahlil qilish orqali potensial jinoyat qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasini aniqlashi va ularga nisbatan profilaktik ogohlantirish tizimini avtomatik ishga tushirishi nazarda tutiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish doirasida yuridik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida «Kriminalistik profayling va sun'iy intellekt» maxsus kursini joriy etish zarur. Bu bo'lajak tergovchilarda nafaqat huquqiy, balki psixologik diagnostika va raqamli ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

etik va huquqiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida «Sun'iy intellektning tergov faoliyatidagi etika kodeksi»ni qabul qilish taklif etiladi. Unda algoritmlar tomonidan chiqarilgan xulosalar shaxsning qadr-qimmatini kamsitmasligi va aybsizlik prezumpsiyasiga zid kelmasligini kafolatlovchi «inson nazorati» prinsipi qat'iy belgilanishi shart.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har jabhada bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi eng avvalo huquqni amalda ishlashida namoyon bo'ladi. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashda xizmat qiladi degan fikrdamiz.

REFERENCES:

1. John E. Douglas Douglas J.E., Olshaker M. Mindhunter: Inside the FBI's Elite Serial Crime Unit. — New York: Scribner, 1995. — 384 p.
2. Ressler R.K., Burgess A.W., Douglas J.E. Sexual Homicide: Patterns and Motives. — New York: Lexington Books, 1988. — 240 p.
3. Turvey B.E. Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. — 4th ed. — London: Academic Press, 2011. — 816 p.
4. Canter D. Criminal Shadows: Inside the Mind of the Serial Killer. — London: HarperCollins, 1994. — 256 p.
5. Kocsis R.N. Criminal Profiling: Principles and Practice. — Totowa: Humana Press, 2007. — 368 p.
6. Britton P. The Jigsaw Man: The Remarkable Criminal Career of Britain's Top Forensic Psychologist. — London: Bantam Press, 1997. — 320 p.
7. Alison L., Rainbow L. Professionalizing Offender Profiling: Forensic and Investigative Psychology in Practice. — London: Routledge, 2011. — 280 p.
8. Rossmo D.K. Geographic Profiling. — Boca Raton: CRC Press, 2000. — 400 p.
9. Белкин Р.С. Криминалистика: учебник для вузов. — М.: Норма, 2001. — 990 с. Белкин Р.С. Теория криминалистики: учебное пособие. — М.: Норма, 1997. — 464 с.

10. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. — М.: Юрлитинформ, 2001. — 352 с. Ратинов А.Р. Психология для следователей. — М.: Юридическая литература, 1967. — 290 с.
11. Колдин В.Я. Криминалистика: учебник. — М.: Юристъ, 2004. — 512 с. Колдин В.Я. Моделирование в криминалистике. — М.: Юридическая литература, 1987. — 176 с.
12. Яблоков Н.П. Криминалистика: учебник. — М.: Юристъ, 2005. — 781 с. Яблоков Н.П. Общие положения криминалистики. — М.: Юридическая литература, 1980. — 256 с.
13. Антонян Ю.М. Личность преступника: криминолого-психологическое исследование. — М.: Норма, 2004. — 304 с. Антонян Ю.М. Психология преступного поведения. — М.: Юрайт, 2010. — 368 с.
14. Дуглас Дж. Охотник за разумом: Особый отряд ФБР по расследованию серийных убийств / Дж. Дуглас, М. Олшейкер ; [пер. с англ. Н. Кузнецова]. — Москва : Альпина нон-фикшн, 2017. — 504 с.
15. Кантер Д. Криминальная психология / Д. Кантер. — Санкт-Петербург : Питер, 2012. — 320 с.
16. Турви Б. Профилирование преступников: введение в анализ доказательств поведенческого характера / Б. Турви. — 4-е изд. — Сан-Диего : Academic Press, 2011. — 754 с.
17. Спирица Е. В. Психологический профиль убийцы. Профайлинг в работе следователя / Е. В. Спирица. — Москва : Питер, 2018. — 256 с.
18. Образцов В. А. Криминалистическая психология : учеб. пособие для вузов / В. А. Образцов, С. Н. Богомолова. — Москва : ЮНИТИ-ДАНА, 2002. — 448 с.
19. Анфиногенов А. И. Психологический портрет преступника, его разработка в процессе расследования преступления : дис. ... канд. психол. наук : 19.00.06 / Анфиногенов Алексей Иванович. — Москва, 1997. — 186 с.
20. Pirjonov S. K. Jinoyatlarni tergov qilishda psixologik ta'sir o'tkazishning kriminalistik taktikasi : yurid. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. / S. K. Pirjonov. — Toshkent : O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. — 72 b.
21. Mamajonov M. A. Jinoyatlarni tergov qilishda profayling texnologiyasidan foydalanish istiqbollari // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. — 2021. — № 6. — B. 45-52.
22. Muxamedov B. A. Tergov faoliyatida psixologik portret yaratishning metodologik asoslari : o'quv-uslubiy qo'llanma / B. A. Muxamedov. — Toshkent : TDYuU, 2020. — 115 b.
23. Xizmat safari natijalari